

O'ZBEKISTONDA TARIXIY-ME'MORIY OBIDALARNI SAQLASH VA TA'MIRLASH DAVLAT SIYOSATINING TARIXIY SHAKLLANISHI

Abriyev Ro'ziqul Bo'ronovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston hududida tarixiy-me'moriy obidalarni saqlash va ta'mirlashga qaratilgan davlat siyosatining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda Temuriylar davrida bunyodkorlik va obodonlashtirish siyosatining davlat boshqaruvi bilan uzviy bog'liqligi, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida tarixiy obidalarga nisbatan olib borilgan siyosatning xususiyatlari hamda sovet davrida madaniy merosni muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy-me'moriy meros, madaniy meros, davlat siyosati, restavratsiya, konservatsiya, Temuriylar davri, Rossiya imperiyasi, sovet davri, me'moriy obidalar.

ИСТОРИЧЕСКОЕ СТАНОВЛЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ ПО СОХРАНЕНИЮ И РЕСТАВРАЦИИ ИСТОРИКО-АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников и научной литературы проанализированы этапы формирования и развития государственной политики по сохранению и реставрации историко-архитектурных памятников на территории Узбекистана. Рассмотрена взаимосвязь государственной политики в области градостроительства и благоустройства в эпоху Тимуридов с системой государственного управления, выявлены особенности политики Российской империи в отношении исторических памятников, а также освещены организационно-правовые основы охраны культурного наследия в советский период.

Ключевые слова: историко-архитектурное наследие, культурное наследие, государственная политика, реставрация, консервация, эпоха Тимуридов, Российская империя, советский период, архитектурные памятники.

THE HISTORICAL FORMATION OF THE STATE POLICY FOR THE PRESERVATION AND RESTORATION OF HISTORICAL AND ARCHITECTURAL MONUMENTS IN UZBEKISTAN

Abstract: This article analyzes the formation and development of the state policy aimed at the preservation and restoration of historical and architectural monuments in the territory of Uzbekistan based on historical sources and scholarly literature. The study examines the close relationship between the construction and urban development policy of the Timurid period and the system of state governance, identifies the specific features of the Russian Empire's policy toward historical monuments, and highlights the organizational and legal foundations of cultural heritage protection during the Soviet period.

Keywords: historical and architectural heritage, cultural heritage, state policy, restoration, conservation, Timurid period, Russian Empire, Soviet period, architectural monuments.

Kirish: Tarixiy-me'moriy meros xalqning ko'p asrlik bunyodkorlik tajribasi, ilmiy tafakkuri va madaniy taraqqiyotini o'zida mujassamlashtiruvchi noyob tarixiy manba hisoblanadi. Me'moriy

obidalar nafaqat ma'lum bir davrning qurilish texnologiyalari yoki badiiy didini aks ettiradi, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiy taraqqiyot, diniy-ma'rifiy hayot va ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining ham muhim ko'rsatkichidir. Shu bois ularni saqlash va asrab-avaylash masalasi tarixning turli bosqichlarida davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lib kelgan.

O'zbekiston hududi qadimdan Sharq sivilizatsiyasining yirik markazlaridan biri bo'lib, bu yerda bunyod etilgan me'moriy obidalar jahon madaniy merosining ajralmas qismiga aylangan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz singari tarixiy shaharlarning me'moriy qiyofasi turli davrlarda amalga oshirilgan bunyodkorlik siyosati natijasida shakllangan. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida yirik me'moriy inshootlar qurilishi bilan bir qatorda mavjud obidalarni ta'mirlash, obodonlashtirish va ularning uzoq muddat saqlanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Keyingi tarixiy davrlarda esa mazkur yo'nalish siyosiy tuzum, iqtisodiy imkoniyat va mafkuraviy qarashlarga qarab turlicha mazmun kasb etdi.

Adabiyotlar sharhi: O'zbekistonda tarixiy-me'moriy merosni muhofaza qilish va restavratsiya qilish masalalari tarix, me'morchilik, madaniyatshunoslik hamda merosni boshqarish yo'nalishlarida olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, Temuriylar davridagi bunyodkorlik siyosati, me'moriy inshootlarning qurilishi va ularni saqlash masalalari Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy hamda Hofiz Abru asarlarida muhim tarixiy manba sifatida o'z aksini topgan. Rossiya imperiyasi va sovet davrida tarixiy obidalarni o'rganish hamda ularni muhofaza qilish masalalari Vasily Bartold, Mikhail Masson, Galina Pugachenkova, Lev Rempel kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Mustaqillik yillarida madaniy merosni muhofaza qilish, restavratsiya ishlari va tarixiy obidalarni asrashning huquqiy hamda tashkiliy asoslari yuzasidan o'zbekistonlik olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Mazkur tadqiqotlarda tarixiy-me'moriy merosni saqlashning zamonaviy mexanizmlari, xalqaro tajriba, milliy qonunchilik hamda davlat dasturlarining ahamiyati yoritilgan.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy-tarixiy va kompleks tahlil metodlari asosida olib borildi. Mavzuga oid arxiv hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy monografiyalar, maqolalar hamda restavratsiya sohasiga oid maxsus adabiyotlar tahlil qilindi. Tarixiy jarayonlarning rivojlanish dinamikasini yoritishda davrlashtirish usulidan foydalanildi. Shuningdek, tarixiy-me'moriy obidalarni muhofaza qilish tizimining shakllanishini baholashda institutsional va funksional tahlil metodlari qo'llanildi. Bu yondashuv turli tarixiy davrlarda davlat siyosatining mazmuni va yo'nalishlaridagi o'zgarishlarni aniqlash hamda ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish imkonini berdi.

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida tarixiy obidalarga nisbatan ikki xil yondashuv kuzatildi. Bir tomondan, Sharq me'morchiligini ilmiy jihatdan o'rganishga qiziqish ortdi, ikkinchi tomondan esa mustamlakachilik manfaatlari ayrim tarixiy obidalarning buzilishi yoki asl qiyofasini yo'qotishiga sabab bo'ldi. Sovet davrida esa tarixiy-me'moriy merosni davlat muhofazasiga olishning institutsional asoslari yaratildi, maxsus boshqaruv organlari tashkil etildi va restavratsiya ishlari ilmiy asosda yo'lga qo'yildi. Biroq bu jarayon mafkuraviy yondashuv ta'siridan xoli bo'lmadi va ayrim tarixiy yodgorliklar siyosiy sabablar tufayli yo'q qilindi yoki ulardan asl vazifasiga zid ravishda foydalanildi. Maqolaning maqsadi O'zbekistonda tarixiy-me'moriy obidalarni saqlash va ta'mirlash davlat siyosatining shakllanish bosqichlarini tarixiylik, uzviylik va vorisiylik tamoyillari asosida tahlil qilish, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari hamda tarixiy ahamiyatini ilmiy jihatdan baholashdan iborat.

O'zbekistonda mavjud me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash va qayta tiklash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi o'rta asrlardan boshlangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa,

Amir Temur va Temuriylar davriga kelib ta'mirlash, obodonlashtirish hamda yangidan qurish amaliyoti rivojlandi. Umuman olganda, Amir Temur va Temuriylar davrida nafaqat qadimiy Zarafshon vohasi, balki butun O'rta Osiyo o'zining navbatdagi iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy yuksalish pallasiga kirgan. Ayniqsa, Zarafshon vohasi asrlar davomida rivojlanib kelayotgan me'morchilik an'alarini davom ettirib, Temuriylar davlatining markaziy madaniy o'choqlaridan biriga aylangan. Shunday qilib, Amir Temur va Temuriylar davrini me'moriy obidalarni muhofaza qilish hamda qurilish-ta'mirlash ishlari ilk bor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan davr sifatida e'tirof etish mumkin.

O'rta Osiyo hududining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi tarixiy-me'moriy obidalarga bo'lgan munosabatda, ularni saqlash, ta'mirlash konservatsiyalash jarayonida yangi bosqichni boshlab berdi. Albatta, chor Rossiyasi hukumati, avvalambor, o'zining iqtisodiy va siyosiy manfaatlari yuzasidan ushbu hududga nisbatan siyosat olib borganligini ta'kidlab o'tish kerak. Ta'kidlash joizki, bu davrda mahalliy obidalarni ta'mirlash ishlariga ularni ilmiy jihatdan o'rganishga qaraganda ancha kam e'tibor qaratilgan. Qolaversa, mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, XVIII asr hamda XIX asr boshida barpo etilgan obidalardan avvalroq qurilgan me'moriy obidalar, jumladan, Samarqanddagi bino va inshootlar o'ta ayanchli holatga tushib qolgan edi [1, 15].

Mutaxassislar tili bilan aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshida (avval davlat, keyinchalik turli jamiyatlar mablag'lari hisobidan) amalga oshirilgan ta'mirlash ishlari obidalar buzilishini oldini ololmagan. Bunda vaqt, zilzila va hatto odamlarning ham ta'siri sezilarli bo'lgan. O'sha davr hukumati harbiy-strategik «mulohazalar»dan kelib chiqib, ayrim binolarni buzib tashlagan ham. Masalan, 1883 yilda Samarqand qal'asini rekonstruksiya qilish maqsadida Qutbi Chaxar duxum yodgorligi portlatilgan [1, 15]. Yoki Amir Temur tomonidan so'fiylar shayxi Nur ad-Din Basiraga atab qurdirilgan va ko'lam jihatidan Go'r Amirdan qolishmaydigan maqbara ham XIX asr oxirida ushbu «amaliyot» qurboni bo'lgan. Shayxning jasadi esa Hazrat Xizr masjidi yonidagi qabristonga ko'chirilgan [2, 13]. O'sha vaqtda ushbu jarayonni to'xtatib qoladigan, nazorat qiladigan maxsus davlat organi ham tashkil etilmagan edi.

Saqlanib qolgan noyob madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish ishlari XX asr boshiga kelibgina davlat ixtiyoriga olindi. Ushbu ob'ektlar 1920 yildan boshlab tashkil qilina boshlagan yodgorliklarni muhofaza qiluvchi maxsus davlat organi tasarrufiga o'tkazila boshlandi.

1968 yilda respublikamizda madaniy merosni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan ishlar uchun muhim voqea yuz berdi – «Madaniy yodgorliklarni himoya qilish haqida» qonun qabul qilindi [2, 4]. Shuni alohida qayd etish kerakki, bu hujjat sobiq Ittifoq darajasidagi ana shunday qonundan 8 yil oldin qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq respublika hukumati tomonidan uning qo'llanishiga doir yo'riqnoma, moddiy madaniyat yodgorliklarni qo'riqlash xududlari va ular atrofida binolar qurilishini tartibga solish haqidagi nizom, O'zbekiston hududida arxeologik qazilmalar va qidiruv ishlarini amalga oshirish huquqi borasidagi yo'riqnoma tasdiqlandi. Shu bilan birga, 1968 yil 30 avgustda O'zbekiston hukumatining qarori bilan ilgari Qo'mita Yodgorliklar va tasviri san'atni muhofaza qilish bosh boshqarmasiga aylantirildi [3].

Umuman olganda, yodgorliklarni himoya qilish haqidagi qonun obidalarni yo'q bo'lib ketish yoki qasddan buzib tashlanishdan himoya qilibgina qolmay, respublikada yodgorliklarni muhofaza va restavratsiya qilish ishlari yanada takomillashuviga ham xizmat qildi. Hamma joyda tarixiy va madaniy yodgorliklarni o'rganish va hisobga olishga oid me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahamiyatini hisobga olib, Respublika hukumati 1975 yildan boshlab ularning muhofazasi uchun ajratiladigan mablag' hajmini sezilarli darajada ko'paytirdi. Bu esa yodgorliklarni himoya qilish organlariga o'z faoliyatini yanada kuchaytirish imkonini berdi va shu tufayli respublikada barcha ko'chmas yodgorliklarni qayta ro'yxatga olish

ishlari amalga oshirildi. Davlat muhofazasiga olingan yodgorliklarning yangi ro'yxati tuzildi [3, 5].

Davlat muhofazasiga olish, ta'mirlash va konservatsiyalash ishlari ko'lamining ortib borishi yagona boshqaruv organi tashkil etilishini taqozo etdi. Shu maqsadda, 1979 yil 24 fevraldan O'zbekistonda madaniy yodgorliklarni muhofaza qiluvchi davlat tizimi – O'zbekiston SSR KP Markaziy komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 149-son Qarori bilan Madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish bosh ilmiy ishlab chiqarish boshqarmasi (GlavNPU) tuzildi. Keyinchalik uning tarkibida loyihalash instituti, ilmiy-restavratsiya ishlab chiqarish tashkilotlari, shu jumladan, me'moriy yodgorliklarni restavratsiya qilish, konservatsiyalash, ularning dekori bo'yicha noyob ishlarni bajarishga ixtisoslashgan restavratsiya ustaxonasi ham tashkil qilindi.

Ammo, yuqorida qayd etganimizdek, davlat darajasida madaniy yodgorliklarni himoya qilish borasida bir qator ishlar qilinishiga qaramay, uzoq yillar davomida hukm surgan nigilizm va uy-joy qurilishiga bir tomonlama ommaviy yondashuv oqibatida ko'plab arxitektura yodgorliklari buzib tashlandi. Xususan, 1989 yilga kelib sobiq Ittifoqda mavjud 2176 shahardan 800 tasi tarixiy shaharlar ro'yxatidan o'rin olgan edi. Ulardan 127 tasi umumittifoq darajasidagi tarixiy shaharlar hisoblangan. Shu bilan birga, mamlakatdagi shaharlarning yarmidan ko'pida tarixiy fondning moddiy eskirishi 40–60 % ni tashkil etgan edi [4, 5]. Shuningdek, tarixiy ahamiyatga ega bir qancha shaharlarda ta'mirlash ishlari olib borilishiga qaramay, bu boradagi ishlar sust va tizimsiz bajarilganligi qayd etilgan.

Shunday qilib, O'zbekistonda tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish va ta'mirlashga oid sovet davri amaliyoti respublikada bu sohada tajriba to'plashga, ta'mirlash ishlari bo'yicha O'rta Osiyo maktabi shakllanishiga olib keldi. Bundan tashqari, respublikadagi tarixiy va me'moriy obidalarni ro'yxatga olish ishi muntazam yo'lga qo'yildi. Jumladan, 1980-yillar oxiriga kelib, respublikada 7 mingdan ortiq yodgorliklar, shu jumladan 575 ta tarixiy, 1457 ta san'at, 545 ta arxitektura va 4 mingdan ortiq arxeologik yodgorliklar davlat himoyasiga olindi [5, 12]. O'zbekistonning me'moriy obidalarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritildi.

Ammo sobiq Ittifoq davrida qo'lga kiritilgan ijobiy yutuqlarga nisbatan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan madaniy merosga bo'lgan g'oyaviy-mafkuraviy yondashuvning zararli ta'siri ko'proq sezildi. Minglab tarixiy obidalar «revolyusion» o'zgarishlar ta'sirida buzib tashlandi, qolganlarining aksariyati esa tahqirlandi, madaniy merosligi inobatga olinmadi, ulardan xo'jalik maqsadlarida foydalanish ommalashdi. Asosiy arxitektura yodgorliklari ro'yxatga olinib, davlat muhofazasiga o'tkazilgan bo'lsa-da, ularning restavratsiyasi va konservatsiyasi uchun juda kam mablag' ajratilgan edi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tarixiy-me'moriy obidalarni saqlash va ta'mirlash davlat siyosatining tarixiy shakllanishiga oid davlat siyosatining evolyusiyasini tahlil qilish quyidagilardan dalolat beradi:

- birinchidan, O'zbekiston hududida urbanistik taraqqiyot qadimiy davlatchilik an'analari bilan hamohang, tadrijiy tarzda kechganligi bois, Markaziy Osiyo miqyosida o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazlardan biriga aylandi. Natijada, ushbu hududda qadimdan shaharsozlik madaniyati, shu bilan birga, yirik me'moriy inshootlar qurish an'analari rivoj topdi va bu jarayon hozirgi kunga qadar bir necha tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi;

- ikkinchidan, O'zbekiston hududida saqlanib qolgan monumental-me'moriy yodgorliklar asosan islom dini qaror topgan davrga to'g'ri keladi. Bular ibodatxona, davlat, jamoat, ishlab chiqarish va aholi uy-joylaridan iborat bo'lib, mazkur inshootlarning rivojlanishi yuksak darajaga yetgan davr Amir Temur va Temuriylar faoliyati bilan bog'liqdir. Tarixiy-me'moriy yodgorliklar o'z davrining yutuqlari va innovatsion texnologiyalarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa-da,

biroq vaqt o'tishi bilan tabiiy-iqlim sharoiti hamda inson faoliyati ta'siri natijasida yodgorliklarning moddiy eskirishi, asl holatining o'zgarishi sodir bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX – начало XX века). Ташкент, 1988. 15-бет.
2. Арапов А.Р. Памятники средневековой архитектуры Самарканда как явление современной культуры // Архитектура и строительство Узбекистана. 2005. № 1.С. 13.
3. ЎРМВ ММОМҚФИИЧББ ЖА Политика государства по сохранению памятников в Узбекистане. С.5.
4. Протокол заседания коллегии Государственного строительного комитета СССР (Госстрой). № 15, от 26 мая 1987 г. С. 5.
5. Крюков К.С. Организационные формы охраны и реставрации памятников архитектуры Узбекистана (1920–1990 гг.) // Строительство и архитектура Узбекистана. 1991. № 2. С. 12.